

DAAD konsultanti Saymen Kretshmerning rasmiy tashrifi

Uchrashuvda institut rektori prof. O'.Umurzakov, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.Salohiddinov, Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Sh.Raxmonov va DAADning konsultanti Saymen Kretshmer qatnashdilar. Uchrashuv ochiq va iliq muhitda olib borildi. Saymen Kretshmer TIQXMMI haqida ko'p bora eshitgani va nihoyat tashrifidan mammun ekanligini ta'kidlab o'tdi. Janob Kretshmer TIQXMMIning xalqaro faoliyatini yuksak baholab, Germaniyadan professorni jalb qilish ishlarida amaliy yordam berishlarini aytib o'tdilar.



Saymon O'zbekiston Milliy universitetidagi tajribasi bilan o'rtoqlashdi. Germaniyadan professorni jalb qilish bo'yicha o'z taklif va tavsiyalarini berib o'tdi. Shu o'rinda institutimiz rektori kelishi mumkin bo'lgan professor yoki dotsentga qo'yiladigan talablarni batafsil yoritib berdi. Shuningdek, institutimiz rektori ta'limdagi islohotlarni yanada jadallashtirish uchun rektor maslahatchisi lavozimiga ham nomzod tanlanayotganini ta'kidlab o'tdi. Ushbu nomzodni SES tashkiloti orqali jalb qilish mumkin ekanligi e'tirof etildi. Umuman uchrashuv do'stona tarzda bo'lgani bois har ikki tomon ham o'zaro qoniqish hosil qildi.

Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov